XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 31 - yanvar VI-50-10-5-77-K/22 Xatirchi tuman hokimligi

Xatirchi tumanidagi “Xuddon” mahalla fuqarolar yig‘inining nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq Xatirchi tumani komissiyasi tomonidan o‘z hududidagi “Xuddon” mahalla fuqarolar yig‘inining nomini o‘zgartirishga oid taqdim etilgan takliflarni muhokama qilib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xatirchi tuman hokimligining tuman hududidagi 1 ta MFY (keyingi o‘rinlarda – geografik obyektlar) nomlarini qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Xatirchi tumanidagi nomi o‘zgartiriladigan ayrim geografik obyekt ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xatirchi tuman Statistika bo‘limi (A.Xusanov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Sadiyev), tuman Qurilish bo‘limi (V.Mizamov), mutasaddi hududiy davlat organlari va tashkilotlari mazkur qarorga muvofiq Xatirchi tumanidagi nomi o‘zgartiriladigan geografik obyektni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Radjabov) nomi o‘zgaradigan geografik

obyektdagi aholining fuqarolik pasportlariga, yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Xatirchi tumani hokimining o‘rinbosari (Z.Mamatova), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Sadiyev), tuman Qurilish bo‘limi (V.Mizamov) bilan hamkorlikda nomi o‘zgartiriladigan geografik obyektning yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror “Xatirchi hayoti” gazetasida rasman e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari (B.Ne'matov, J.Rashidov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Saidaxmedova) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi raisi **С. Низамов**